

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING SAYLOV HUQUQINI TA'MINLASH
MEXANIZMLARIGA TA'SIRI: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI****Rustamov G'olibjon Tohir o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti, Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti

golibjonrustamov1718@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15515542>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning saylov huquqini ta'minlash mexanizmlariga ta'siri hamda uni huquqiy tartibga solish masalalari o'rganilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning saylov jarayoniga tatbiq etilishi fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirishda yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, bir qator huquqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Maqolada elektron ovoz berish tizimlari, blokchein texnologiyasi, sun'iy intellekt va raqamli identifikatsiya tizimlarining afzalliklari va xavflari, ularning saylov huquqini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Xorijiy davlatlar tajribasi va O'zbekistonda raqamli saylov texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: blokchein texnologiyasi, demokratiya, elektron ovoz berish, konstitutsiyaviy huquqlar, raqamli texnologiyalar, raqamli identifikatsiya, saylov huquqi, saylov qonunchiligi.

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ИЗБИРАТЕЛЬНЫХ ПРАВ: ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ**

Аннотация. В данной статье исследуется влияние цифровых технологий на механизмы обеспечения избирательных прав и вопросы их правового регулирования. Внедрение современных цифровых технологий в избирательный процесс, создавая новые возможности для реализации избирательных прав граждан, одновременно порождает ряд правовых проблем. В статье проанализированы преимущества и риски электронных систем голосования, блокчейн-технологии, искусственного интеллекта и систем цифровой идентификации, их значение в обеспечении избирательных прав. Разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию правовых основ внедрения цифровых избирательных технологий в Узбекистане с учетом опыта зарубежных стран.

Ключевые слова: блокчейн-технология, демократия, электронное голосование, конституционные права, цифровые технологии, цифровая идентификация, избирательное право, избирательное законодательство.

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON ELECTORAL RIGHTS MECHANISMS:
ISSUES OF LEGAL REGULATION**

Abstract. This article examines the impact of digital technologies on electoral rights mechanisms and issues of their legal regulation. The implementation of modern digital technologies in the electoral process creates new opportunities for citizens to exercise their voting rights while also giving rise to a number of legal challenges. The article analyzes the advantages and risks of electronic voting systems, blockchain technology, artificial intelligence, and digital identification systems, as well as their significance in ensuring electoral rights. Scientifically-based proposals and recommendations have been developed for improving the legal framework for implementing digital election technologies in Uzbekistan, taking into account the experience of foreign countries.

Keywords: blockchain technology, democracy, electronic voting, constitutional rights, digital technologies, digital identification, electoral rights, electoral legislation.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi raqamli texnologiyalarning beqiyos rivojlanishi va ularning ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borishi bilan tavsiflanadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi tizimini ham qamrab olmoqda va demokratik institutlarning faoliyat yuritish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Demokratiyaning muhim elementi bo'lgan saylov tizimi ham raqamli texnologiyalar ta'siridan chetda qolmayapti. Bugungi kunda dunyo miqyosida elektron ovoz berish tizimlari, saylovchilarni ro'yxatga olishning avtomatlashtirilgan mexanizmlari, blokchein texnologiyasi, sun'iy intellekt va boshqa innovatsion raqamli yechimlar saylov jarayonlarini tashkil etish va fuqarolarning saylov huquqlarini ta'minlashning yangi vositalariga aylanmoqda.

Fuqarolarning saylov huquqlari demokratik jamiyatning asosiy tamal toshlaridan biri hisoblanadi. Bu huquqlar fuqarolarga davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda ishtirok etish, siyosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish va o'z manfaatlarini aks ettirish imkoniyatini beradi. Saylov huquqlarining to'laqonli mavjudligi esa, o'z navbatida, davlat hokimiyati organlari legitimligini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash uchun zarur shartdir. Yangi Konstitutsiyamizning XXII bobi "Saylov tizimi" ga bag'ishlangan bo'lib, unda fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro prinsiplar va standartlarni o'zida to'laqonli aks ettiradi. Bosh qomusimizning 36-moddasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan bo'lib, bu norma fuqarolarning siyosiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan[1]. Shu ma'noda, fuqarolarning saylov huquqlarini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi har qanday sa'y-harakatlar demokratik jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

XXI asr boshlarida raqamli texnologiyalar saylov huquqini ta'minlashda yangicha yondashuv sifatida kirib keldi. Bu texnologiyalar bir tomondan saylov jarayonining samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolar ishtirokini kengaytirish imkoniyatlarini yaratasa, boshqa tomondan ushbu texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq huquqiy, tashkiliy va texnik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Saylov huquqining asosiy tamoyillari – tenglik, umumiylik, to'g'ridan-to'g'ri saylov, yashirin ovoz berish va erkin saylov prinsiplari raqamli muhitda o'ziga xos talqinga va amalga oshirilish shakllariga ega bo'lmoqda.

Turli davlatlarda raqamli saylov texnologiyalarini joriy etish tajribasi ushbu innovatsiyalarning huquqiy tartibga solish mexanizmlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatmoqda. Estoniya, Shveytsariya, Hindiston, Janubiy Koreya kabi davlatlarning tajribasi raqamli saylov texnologiyalarini joriy etish uchun puxta ishlab chiqilgan huquqiy baza zarurligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq huquqiy muammolar – shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, kiberhujumlardan himoyalaniish, raqamli bo'shliq muammosi va saylov jarayoni yaxlitligi hamda shaffofligini ta'minlash masalalari alohida e'tibor talab etadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi raqamli texnologiyalarning saylov huquqini ta'minlash mexanizmlariga ta'sirini kompleks o'rganish va uni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi: raqamli saylov texnologiyalarining huquqiy tabiatini aniqlash, bu texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq huquqiy muammolarni tadqiq etish, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalarning saylov huquqini ta'minlash mexanizmlariga ta'sirini kompleks o'rganish va uni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy, tizimli-strukturaviy, formal-yuridik va empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil orqali turli davlatlarning raqamli saylov texnologiyalari sohasidagi qonunchilik bazasi, huquqiy tartibga solish mexanizmlari va amaliyoti tahlil qilindi. Tizimli-strukturaviy usul raqamli texnologiyalarning saylov huquqini ta'minlash mexanizmlari tizimidagi o'rni va roli kompleks tadqiq etildi hamda raqamli texnologiyalarning saylov jarayonining har bir bosqichiga ta'siri tizimli tahlil qilindi. Formal-yuridik usul orqali esa milliy va xalqaro huquqiy hujjatlarning mazmuni, tuzilishi va tizimli tahlili amalga oshirildi. Empirik tadqiqot usullari orqali esa elektron ovoz berish tizimlari qo'llanilgan davlatlardagi saylov natijalarining ishonchliligi, saylovchilar ishtirokinining o'zgarishi tahlil qilindi. Tadqiqot manbalariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Saylov kodeksi, Prezident farmonlari va qarorlari, Mazkaziy saylov komissiyasi qarorlari, xalqaro huquqiy hujjatlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, ilmiy adabiyotlar hamda statistik ma'lumotlar kiritildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Saylov atamasi fuqarolarning ovoz berish orqali davlat hokimiyati organlarini shakllantirishni anglatadi. Fuqarolarning saylov huquqlariga ega bo'lishi va uni biron bir to'sqinliklarsiz amalga oshirishi davlat hokimiyatini demokratik tarzda tashkil etish va davlat boshqaruvida ishtirok etishning eng muhim kafolatlaridan biridir. Saylov huquqi – fuqarolarning saylov yo'li bilan tashkil etiladigan lavozimlar va vakillik organlariga saylash va saylanishga bo'lgan huquq[2, s. 11]. Shuni ta'kidlash kerakki saylov huquqi alohida huquq tarmog'i emas, balki konstitutsiyaviy huquqning instituti sifatida e'tirof etiladi. Saylov huquqi fuqarolarning saylab qo'yiladigan organlarni tuzishda qatnashish, ya'ni unga o'zlarining saylanish (passiv saylov huquqi) va ularning tarkibini saylash (faol saylash huquqi) huquqlaridir[3, s. 478-479].

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq o'tkazilayotgan saylovlarning o'rni beqiyos. Saylovlar kuchli fuqarolik jamiyati va demokratik, huquqiy davlatning ajralmas belgisi, xalq xohish irodasining erkin ifodalanishi, fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishining asosiy shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlariga faol kirishdi. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini va saylov madaniyatini oshirish, saylovlarga oid xalqaro standartlarni qonunchilikka implementatsiya qilish, saylovchilarning yagona elektron ro'yxati va saylov jarayonlarini boshqarish axborot tizimini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat tizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi[4]. "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi kabi normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatda raqamli texnologiyalarni joriy etishning huquqiy poydevorini tashkil etmoqda. Biroq raqamli saylov texnologiyalari sohasida O'zbekiston qonunchiligi hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Saylov jarayonini tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan

samarali foydalanish orqali saylov jarayoni ishtirokchilari tomonidan saylov komissiyalariga hujjatlarni taqdim etish, saylov komissiyalarining qarorlarini qabul qilish, shuningdek saylovlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa jarayonlarni elektron shaklda amalga oshirish maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash uchun 2024-yil 19-iyulda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan Markaziy saylov komissiyasi bilan hamkorlikda "E-saylov" axborot tizimi ishlab chiqildi va "E-saylov" axborot tizimining reglamenti qabul qilindi[5].

O'zbekistonda 2019-yilda Saylov kodeksining qabul qilinishi saylov qonunchiligini tizimlashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ammo raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida qonunchilikni yanada takomillashtirish zarur. Bundan tashqari, 2023-2030 yillarda raqamli O'zbekiston strategiyasi ham davlat boshqaruvi sohasida raqamlashtirish bo'yicha muhim yo'nalishlarni belgilab beradi [6].

Aytish joizki, bugungi kunda davlat tomonidan raqamli islohotlarga bo'lgan e'tibor oshib borayotgan bir davrda e-saylov tizimi ham bosqichma bosqich joriy etilmoqda. Bu borada yutuqlar saylovchilarning yagona elektron ro'yxati, "E-saylov" axborot tizimi, mobil ilovalar, ma'lumotlar bazasini integratsiyalash kabi chora-tadbirlarda o'z ifodasini topmoqda. Biroq to'liq raqamli ovoz berish tizimiga o'tish uchun hali yechilishi lozim bo'lgan muhim masalalar mavjud.

Raqamli texnologiyalarning saylov huquqini ta'minlashdagi roli va ahamiyatini tahlil etadigan bo'lsak, ular saylov huquqlarini ta'minlash mexanizmlariga ta'sir etuvchi bir qator asosiy yo'nalishlarga ega:

Birinchidan, elektron ovoz berish tizimlari fuqarolarning saylov huquqini amalga oshirishning zamonaviy shakli sifatida ovoz berish jarayonini soddalashtirish, natijalarni tezkor hisoblash, nogironligi bor shaxslar uchun qulaylik yaratish, saylovchilar ishtirokini oshirish kabi bir qator afzalliklarni namoyon etadi.. Shu bilan birga, elektron ovoz berish kriptografik xavfsizlik, ovoz berish sirini saqlash, tizim shaffofligi va ishonchliligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi elektron ovoz berish tizimlarini joriy etishda beshta asosiy prinsipni keltirib o'tadi: universal saylov huquqi, teng saylov huquqi, erkin saylov huquqi, yashirin ovoz berish va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi [7, s.13]. Ammo bugungi kunda bu prinsiplarni raqamli muhitda to'liq ta'minlash murakkab vazifa bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, blokchein texnologiyasi ma'lumotlarni markazlashmagan holda saqlash va o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda ro'yxatga olish imkoniyatini beradi. Saylov jarayonida bu texnologiya ovozlarni himoyalangan holda saqlash, saylov jarayoni yaxlitligini ta'minlash va natijalarni tekshirish imkoniyatini yaratadi. Sierra-Leone va Janubiy Koreyada o'tkazilgan tajriba loyihalarida blokchein texnologiyasi asosidagi saylov tizimlari sinovdan o'tkazilgan [8, s. 2]. Bu tajribalar texnologiyaning saylov jarayonini xavfsiz va shaffof tashkil etish imkoniyatini ko'rsatmoqda, lekin huquqiy tartibga solish masalalari hali to'liq hal etilmagan.

Uchinchidan, saylovchilarni aniq identifikatsiya qilish fuqarolarning saylov huquqini ta'minlashning muhim elementi hisoblanadi. Biometrik identifikatsiya tizimlari, elektron ID-kartalar va mobil identifikatsiya usullari saylovchilarni ro'yxatga olish va tekshirishning samarali usullariga aylanmoqda. Masalan, Estoniyada milliy raqamli identifikatsiya tizimlari saylov jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilingan [9, s. 36].

To'rtinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari saylov jarayonini tahlil qilish, saylov okruglarini optimallashtirish va saylov nizolarini hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish

uchun qo'llanilmoqda. Biroq, sun'iy intellekt qarorlarining shaffofligi, algoritm xolisligi va uning qo'llanilishini huquqiy tartibga solish hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biridir.

Shu bilan bir birga, raqamli saylov texnologiyalarini qo'llashning bir qator huquqiy muammolari mavjud. Jumladan, raqamli saylov tizimlari fuqarolarning katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlashni talab etadi. Bu ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlash masalasini muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tahlillar ko'rsatishicha, ko'plab mamlakatlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligi saylov jarayonida qo'llash uchun yetarlicha moslashtirilmagan. Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti shaxsiy ma'lumotlar himoyasining yuqori standartlarini belgilaydi, ammo saylov jarayonida uning qo'llanilishi bo'yicha aniq ko'rsatmalar mavjud emas. O'zbekiston qonunchiligida ham "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun mavjud bo'lsa-da, raqamli saylov texnologiyalari sohasida qo'shimcha tartibga solish mexanizmlari talab etiladi.

Ikkinchidan, raqamli saylov tizimlariga kiberhujumlar saylov natijalarini o'zgartirish, saylov jarayonini izdan chiqarish yoki saylovchilar ma'lumotlarini o'g'irlash maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Bu muammo milliy xavfsizlik masalasi darajasiga ko'tarilmoqda. Xalqaro huquqda kiberhujumlar va saylov jarayoniga aralashishni taqiqlovchi normalar shakllangan bo'lsa-da, ularga qarshi kurashish samaradorligi hali past. BMT Xavfsizlik Kengashi va YXHT doirasida saylov jarayonlariga kiberhujumlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining turli aholi qatlamlari o'rtasida teng taqsimlanmagani saylov huquqining universal prinsipining buzilishiga olib kelishi mumkin. Keksa fuqarolar, qishloq joylarida yashovchilar, nogironligi bor shaxslar va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaif qatlamlar raqamli saylov texnologiyalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu esa saylov huquqining tenglik prinsipini buzilishiga olib keladi.

To'rtinchidan, raqamli saylov tizimlari ko'pincha "qora quti" tamoyiliga asoslanadi, ya'ni ovoz berish jarayonining texnik jihatlarini oddiy saylovchilar uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bu esa saylov jarayoniga ishonchni pasaytiradi. Shuningdek, elektron ovoz berish natijalarini tekshirish imkoniyati an'anaviy qog'oz byulletenlar bilan ovoz berishga nisbatan murakkabroq. Germaniya Konstitutsiyaviy sudi 2009-yilda elektron ovoz berish qurilmalarining shaffoflik prinsiplariga zidligini e'tirof etib, ulardan foydalanishni ta'qiqladi. Sudning qaroriga ko'ra, har qanday saylovchi maxsus texnik bilimga ega bo'lmasdan saylov jarayonining barcha bosqichlarini tushunish va tekshirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Bugungi kunda bir qancha davlatlar elektron saylov tizimini to'liq yoki qisman joriy etgan. Biz hozir Estoniya va Shvetsiya tajribasi haqida fikr yuritamiz. Estoniya dunyoda birinchi bo'lib milliy miqyosda elektron ovoz berish tizimini joriy qilgan davlat hisoblanadi. 2005 -yilda mahalliy saylovlarda ilk bor qo'llanilgan bu tizim zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda fuqarolarga internet orqali ovoz berish imkoniyatini taqdim etadi. Estoniyaning E-Voting nomi bilan mashhur bo'lgan tizimi fuqarolarning milliy ID-kartalari va shaxsiy PIN-kodlari orqali ishlaydigan xavfsiz autentifikatsiya mexanizmiga asoslangan. Tizimning muhim xususiyati fuqarolarga oldindan ovoz berish davrida o'z ovozlari bir necha marta o'zgartirish imkoniyatini yaratishidir, bu esa saylovchilarning erkin tanlov qilishini ta'minlaydi. Elektron tarzda ovoz bergan fuqarolar keyinchalik an'anaviy usulda saylov

uchastkasida ovoz berishni tanlaganda, faqat saylov uchastkasidagi ovozi hisobga olinadi[10]. Ushbu tizim “ikki konvertli” deb ataladigan usul orqali saylovchilarning maxfiyligini ta’minlaydi, bu bilan kimning qanday ovoz berganini aniqlash imkonini bermaydi. 2019-yilgi parlament saylovlarida Estoniya saylovchilarining qariyb yarmi - 43.8 foizi ovozlarni elektron tarzda bergan, bu ko’rsatkich keyingi mahalliy saylovlarda yanada oshgan.

Shvetsiya esa Estoniyadan farqli ravishda elektron saylov tizimini to’liq joriy qilmagan bo’lsa-da, bu sohada bir qator muhim tajribalarni o’tkazgan. 2011-yilda Värmland va Stockholm kabi hududlarda elektron ovoz berish tizimlari sinov tariqasida qo’llanilgan. 2013 -yilda Shvetsiya hukumati bu sohada chuqur tadqiqotlar olib borgan va 2018 -yildagi saylovlarda elektron tizimni qo’llash masalasini ko’rib chiqqan[11]. Biroq, xavfsizlik va shaffoflik kabi masalalar tufayli to’liq elektron saylov tizimiga o’tish amalga oshirilmagan. Bugungi kunda Shvetsiya an’anaviy qog’oz byulletenlar bilan ovoz berish tizimini saqlab qolgan holda, asosan saylov natijalarini hisoblash va uzatish jarayonlarini raqamlashtirish ustida ishlamoqda. Shvetsiya tajribasi elektron saylov tizimlarini joriy etishda puxta yondashuv va ehtiyotkorlik muhim ekanligini ko’rsatadi.

Ikkala mamlakatning tajribasi ham elektron saylov tizimlari saylovchilar uchun qulay, ishtirok etish darajasini oshiruvchi vosita bo’lishi mumkinligini, ammo shu bilan birga xavfsizlik, ishonchlilik va jamoatchilik ishonchini saqlab qolish masalalari muhim ekanligini ko’rsatmoqda. Estoniya tajribasi muvaffaqiyatli elektron saylov tizimini yaratish mumkinligini isbotlasa, Shvetsiya tajribasi bunday tizimlarni joriy etishda har tomonlama o’ylangan yondashuvning muhimligini namoyon etadi.

XULOSA

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi saylov jarayonlarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlariga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Tadqiqot natijalariga ko’ra, zamonaviy texnologiyalar bir tomondan saylov huquqlarini ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirsa, boshqa tomondan yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Elektron ovoz berish tizimlari, blokchein texnologiyasi, sun’iy intellekt va raqamli identifikatsiya vositalari saylov jarayonlarini modernizatsiya qilishning yangi mexanizmlarini yaratmoqda. Biroq, bu jarayonda shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, kiberhavfsizlik, raqamli bo’shliq va saylov shaffofligi kabi jiddiy huquqiy masalalar yuzaga kelmoqda.

Xorijiy mamlakatlar (Estoniya, Shveytsariya) tajribasi tahlili ko’rsatishicha, raqamli saylov texnologiyalarini joriy etishda turli yondashuvlar mavjud bo’lib, ularning ayrim elementlarini O’zbekiston sharoitiga moslashtirib qo’llash mumkin. O’zbekistonda raqamli saylov texnologiyalarini samarali qo’llash uchun huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Bu o’z navbatida Saylov kodeksi va tegishli qonunlarga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritishni taqozo etadi.

O’zbekistonda raqamli saylov texnologiyalarini huquqiy jihatdan tartibga solishni takomillashtirish uchun quyidagi yo’nalishlarda ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- saylov kodeksiga elektron ovoz berish va saylovchilarni elektron ro’yxatga olish bo’yicha maxsus qoidalarni kiritish;
- “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi qonunni saylov jarayoniga moslashtirish;
- raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish.

Yuqoridagilarga asoslanib, raqamli saylov texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish dasturlarini ishlab chiqish, Markaziy saylov komissiyasi tarkibida maxsus departament tashkil etish kabi amaliy chora-tadbirlar O'zbekistonda zamonaviy, shaffof va xalqaro standartlarga mos saylov tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa pirovardida fuqarolarning saylov huquqlarini yanada to'liqroq ta'minlash va ularning saylovda ishtirok etish darajasini oshirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023// <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. I.R. Bekov, X.I. Botirov. Saylov tizimining konstitutsiyaviy asoslari: o'quv qo'llanma. – T: TDYU nashriyoti, 2023. – 172 b.
3. I. Tadjixanov, X. Odilqoriev, A. Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T: Sharq, 2001. – 538 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining “E-saylov axborot tizimining reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 19.07.2024-yildagi 1352-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-7042273>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6079-son farmoni <https://lex.uz/docs/-5030957>
7. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). Code of Good Practice in Electoral Matters. – Strasbourg, 2002. – 13 p.
8. Kshetri N., Voas J. Blockchain-Enabled E-voting. IEEE Software, 2018. No.4. – 2 b.
9. Krimmer R., Volkamer M., Duenas-Cid D., Makarov I. Electronic Voting: 7th International Conference. – Bregenz, 2022. – 197 b.
10. Estoniya Saylov komissiyasi rasmiy sayti <https://www.valimised.ee/en>
11. Shvetsiya Saylov boshqarmasi (Valmyndigheten) rasmiy sayti <https://www.val.se/>